



## XALQ DEPUTATLARI SHO'RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho'rchi tumani, Mustaqillik ko'chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2022 йил «14» июл

VI-48-94-8-120-K/22

Шўрчи туман ҳокимлиги

### **2022 yilning birinchi yarmida tuman darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi hamda huquqni qo'llash amaliyoti holati haqida tuman adliya bo'limi boshlig'inining axboroti to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5415-sonli, 2018 yil 8 avgustdagi "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5505-sonli Farmonlari hamda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-sun Qaroriga asosan tuman (shahar) adliya bo'limlarining asosiy vazifalari belgilab berildi.

Shundan, to'rtinchi vazifa, tumanlar (shaharlar) hokimlari va xalq deputatlari Kengashlarining qarorlarini qonun hujjatlariga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga muvofiqligi nuqtai-nazaridan huquqiy ekspertizadan o'tkazishdir.

Bunda adliya bo'limi tomonidan bu vazifani amalga oshirishda:

hokimliklarning normativ tusdagi qarorlari loyihalari jamoatchilik muhokamasi o'tkazilishi uchun Yagona interaktiv davlat hizmatlari portaliga joylashtirilishini;

loyihaning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga, amaldagi qonun va qonunosti hujjatlarga muvofiqligiga;

joriy etilayotgan normalarda korrupsiyaning kelib chiqishiga shart-sharoitlar yaratmaslik, fuqarolar, ayniqsa tadbirkorlik subyektlarga ortiqcha xarajatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan normalarni yaratmasligiga;

qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy veb-saytlarga joylashtirishini;

davlat hisobiga olish uchun adliya organlariga belgilangan tartibda taqdim etilishini;

tumanlar (shaharlar) hokimlari va halq deputatlari Kengashlarining qarorlarini xatlovdan o‘tkazib turilishini ta’minlashi;

huquqiy ekspertidan o‘tkazilmasdan qabul qilingan qarorlarni bekor qilish choralarini ko‘rish belgilangan.

Tuman adliya bo‘limi tomonidan 2022 yil 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tuman adliya bo‘limi boshlig‘ining axborotini tinglab, shuningdek, mazkur masalaning tuman Kengashi qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishida muhokama qilinganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asoslanib xalq deputatlari tuman Kengashi,

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman adliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Ishboyevning “2022 yilning birinchi yarmida tuman darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti holati haqida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining barcha o‘rinbosarlariga tuman hokimligida qabul qilingan barcha normativ huquqiy hujjatlarni tuman hokimligi veb-saytida yoritib borishni tashkil qilib borsin.

3. Tuman hokimligi (J.Norqulov), ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘limi (O‘.Qoraboyev), mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (A.Nurboyev), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (Z.Eshqulov), tuman adliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Ishboyev va boshqa tuman tashkilotlari

bilan hamkorlikda:

- aholining huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida mehnat jamoalari va mahallalarda aholi orasida huquqiy targ‘ibot ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish;

- yangi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa meyoriy hujjatlarni davlat organlari va tashkilotlar hamda fuqarolar yig‘inlariga yetkazish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish;

- amaldagi qonunlar, farmonlar va qarorlar ijrosi hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslashning holatini joylarda o‘rganib, bu borada aniqlangan mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha amaliy yordam berib borish;

- amaldagi qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha tegishli takliflar berish ishlarini yanada takomillashtirish vazifalarini amalga oshirsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashi sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Rajabov) zimmasiga yuklatilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Xalq deputatlari tuman Kengashi  
raisi



Xudoyberganov B.X